

5. Isakulova N. USE OF THE CASE OF THE METHOD IN TEACHING SPECIAL TERMS IN THE ENGLISH LANGUAGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 5.

6. Isakulova N. METHODS OF USING COURSES OF OPEN EDUCATION IN IMPROVING MEDIA OF COMPETENCE OF STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH) //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 5.

“O‘ZBEK” DAVLATCHILIGI TARIXIDA AYOLLARNING O‘RNI VA ROLI

Abulova M.K., TDPU “Pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan insonparvar siyosatning muhim qismi bo‘lmish ayollar masalasiga bag‘ishlangan. Unda davlatchiligimiz tarixida munosib o‘rin egallagan dono, oqila va jasur ayollarimizning davlatni bodhqarish, xalqni yagona maqsad yo‘lida birlashtirish, farzandlar tarbiyasi va harbiy sohani rivojlantirish haqidagi faoliyatlari manbalar asosida ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, farzand tarbiyasi, ayol.

Ma‘lumki, ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni shu jamiyatning taraqqiyot darajasini belgilash uchun muhim mezon sanaladi. Garchi jahon miqyosida ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishga qonuniy asosda o‘tgan asrga kelib erishgan bo‘lsalar-da, ular insoniyatning ko‘p ming yillik tarixida eng keskin vaziyatlarda o‘z oilasi va jamiyat manfaatlarini doimo erkaklar bilan bir safda turib, himoya qilganlar. Ayol doimo jamiyatning eng muhim a‘zosi va ustunlaridan biri bo‘lib kelgan. Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e‘zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi”.

Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi o‘tmishiga nazar tashlansa, turli tarixiy jarayonlarda erkaklar bilan bir qatorda ayollarning faol ishtiroklari haqidagi ma‘lumotlarni uchratish mumkin. Xususan, To‘maris, Qabaj xotun, Saroymulxonim, Gulbadanbegim, Mumtozmahalbegim kabilar jamiyat tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, uni rivoji uchun hissa qo‘shdilar.

Shu o‘rinda nafaqat Sharqda, balki butun dunyoda o‘z jasorati bilan nom qozongan To‘maris faoliyatiga e‘tibor qaratsak maqsadga muvofiq. Yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, o‘sha davrda Eronda yuzaga kelgan ahamoniylar saltanati juda kata hududlar – Midiya, Lidiya va Bobilni egallagan. Shunday katta hududni zabt etgan ahamoniylar saltanati hukmdori Kir II o‘zining qariyb ikki yuz ming kishilik lashkari bilan mamlakatimiz hududiga hujum qilganida, massagetlar qabilasi boshlig‘i To‘maris bilan to‘qnashadi. Kir II ning o‘z nikohiga olish taklifini rad etgan To‘marisning o‘g‘li xiyla bilan qo‘lga olinadi. Lekin To‘maris dushmanga yon bermay, uni jangga chaqiradi. Yunon tarixchilarining e‘tirof etishicha, To‘maris boshchiligidagi massagetlar ahamoniylarga shunchalik qaqshatqich zarba beradilarki, natijada dushmannintg bitta ham jangchisi omon qolmaydi. Bu hol juda qadimdan ham mamlakatimizda nihoyatd jasur, erksevar, harbiy mahorati yuksak va boshqaruv qobiliyati kuchli ayollar bo‘lganligidan dalolat beradi.

Tarixchi olim S.Safayeva To'maris haqida quyidagicha yozadi: "Aql-zakovati, mard va donoligi bilan dunyoga dong taratgan To'maris jahon adabiyoti qahramoniga aylangan. Uning jasorati haqida Yunon, Rim va butun Yevropa adabiyotshunoslari, tarixchilari o'nlab asarlar yozganlar. Buyuk Dante Aligyeri "Ilohiy komediya" sining "A'rof" qismini asosan unga bag'ishladi va turkey ayolni shoh Kirdan, hatto xristian dini peshvolari, Rim papasi, Kardinal, Yepiskop va qirollardan ustun qo'ydi. Buyuk dramaturg Uilyam Shekspir ham To'maris obrazini Yevropa ayollariga namuna qilib yozgan edi. Chunonchi, uning Genrix VI ga bag'ishlangan dramasida ingliz tajovuzkorlariga qarshi kurash qahramoni grafinya Overiskaya: "Mening rejam tayyor, agar o'ngidan kelsa, Kirni halok qilish bilan nom chiqargan skif To'marisdan kam bo'lmagan qahramonligim ila nom chiqaraman", - deya ahd qiladi. "Kirning vafoti" tragediyasining muallifi fransuz dramaturgi F.Kino esa To'marisni fransuz xalqining milliy qahramoni bo'lmish Janna D'Ark darajasida ulug'laydi".

VII asrning o'rtalariga kelib mamlakatimizga arab xalifaligi hujumi boshlanadi. 651-yili Marvni egallagan arab lashkarboshilari o'lkamiz ichkarisiga Buxoro yo'nalishini tanlaganlar. Xalifa Muoviya ibn Abu Sufyon tomonidan 673-yili Xuroson noibligiga tayinlangan Ubaydulla ibn Ziyod shu yiliyoq ilk bor Buxoro tomon o'tlanadi. Bu davrda, aniqrog'i 680-695-yillarda Buxoroni Qabaj xotun ismli malika boshqaradi.

Manbalarda ko'rsatilishicha, Qabaj xotun har kuni otga minib, saroydan chiqqan va Registon darvozasi yaqinidagi maxsus joyda taxtda o'tirib, xalqning arz-dodini tinglagan. Qabaj xotun bu ish bilan tushgacha shug'ullangan va mamlakatdagi ahvoldan yaxshi xabardor bo'lgan. Tushdan keyin kechki tomon Qabaj xotun yana shu yerga kelib, o'z ishini davom ettirgan. Qabaj xotun adolatli, ziyrak hukmdor bo'lganligi tufayli mamlakatda o'n besh yil hukmronlik qilgan. Uning hukmronligi davrida arablar mamlakatga uch marta hujum uyushtirgan. Birinchi safar Qabaj xotun dushman bilan juda keskin jangga kiradi, lekin kuchlar nisbati teng emas edi va Qabaj xotun mamlakatni xarob etishdan saqlab qolish uchun bosqinchilar lashkariga bir million dirham berib, hujumni to'xtatib qoladi.

Oradan ikki yil o'tib, 675-yili arablar ikkinchi marta hujum qiladilar. Bu safar ularga Xuroson noibi Sa'id ibn Usmon boshchilik qilgan. Ularga qarshi faqat o'zining qudrati yetmasligini bilgan Qabaj xotun avvalo Sug'd, Kesh va Naxshab viloyatlariga bu haqda xabar yo'llab, yordam so'raydi. To ko'mak yetib kelgunga qadar esa vaqtdan yutish niyatida "Ubaydulla ibn Ziyod bilan tuzgan sulhimda barqarorman" qabilida noma bilan Sa'id ibn Usmon huzuriga elchi qo'yadi. Elchi birgina noma bilan emas, tuzukkina o'lpon bilan ham kelgani uchun Xuroson noibi biroz muddat hujumni to'xtatishga majbur bo'lgan. Hu orada tilga olingan viloyatlardan yetib kelgan harbiy kuchlar Qabaj xotun lashkari bilan birga jangga shaylanadilar. Bo'lib o'tgan jangda buxoroliklar yengiladilar. Yana o'zaro sulh tuziladi. Shu bilan birga Qabaj xotunning baribir bo'yin egmasligi, arablar hukmini tan olmasligini yaxshi anglagan Sa'id ibn Usmon Buxorodan so'ng Samarqand, umuman So'g'd viloyatiga hujum qilish rejasini tuzar ekan, o'zidan xavfsirab, "men endi So'g'd va Samarqandga boraman, sen mening yo'limdasan, yo'limni to'smasliging va meni ranjitmasliging uchun sen tomondan biror garov bo'lishi lozim", deya malikaga shart qo'yadi. Qabaj xotun ushbu shartni qabul qilib, malikzoda zodagonlardan sakson kishini unga garovga yuboradi.

Arablarining uchinchi marta hujum xavfi tug'ilganida Qabaj xotun mamlakat manfaatini o'ylab, qo'shni So'g'd viloyati hokimiga turmushga chiqadi va u bilan hujumni birga qaytarishga kirishadi. Lekin bu safar ham dushman bilan sulh tuzishga to'g'ri keladi. E'tiborli tomoni shundaki, Qabaj xotun mamlakat mudofaasi uchun o'z lashkari bilan yonma-yon turib kurashadi va o'zining nafaqat hukmdorlik, balki sarkardalik

mahoratini ham namoyon etadi. Buyuk sohibqiron Amir Temur oilada ayolning, bolaning jamiyat hayotida tutgan o'rnida katta e'tibor qaratgan. U o'z xonadoniga kelin yoki kuyov bo'ladigan yigit-qizning nasl-nasabini yaxshi surishtirgan va bu masalani davlat ishlari bilan bir qatarga qo'ygan.

O'rta asrning mashhur tarixchi olimlaridan biri Ibn Arabshoh o'zining "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") asarida Amir Temur qo'shini haqida ma'lumot berar ekan, jumladan, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Temur askari ichida ayollar ham ko'p bo'lib, ular jang to's-to'polonlari va shiddatli to'qnashuvlarda matonat ko'rsatardilar. Ular dushman erkaklarga qarshi turib, mardonavor urush qilardilar, qilich bilan zarba berishda va kamondan otishda mohir erkaklardan ko'ra ham ortiqroq idh qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo'lib, yo'lda ketayotgan paytda uni dard tutsa u o'z jamoasidan ajralib, yo'ldan chetga chiqardi va ulovdan tushardi. Ko'zi yorigach, chaqalog'ini o'rab olib, uloviga minardi va jamoasiga kelib qo'shilardi". Ushbu ma'lumotlar asosida ta'kidlash mumkinki, birinchidan, Amir Temur davrida ayollar qo'shinining doimiy tarkibida bo'lib, harbiy harakatlarda faol qatnashgan, ikkinchidan, G'arb mamlakatlaridan farqli o'laroq, ayollarga jangovar qurol olib yurish va undan foydalanish uchun cheklanishlar bo'lmagan, uchinchidan, jangchilik mas'uliyati nuqtayi nazaridan olinganda, garchi harbiy xizmat o'zining talab va cheklanishlariga ega bo'lsa-da, ayollar erkaklar bilan bir xil mavqega ega bo'lganlar.

Shuningdek, Amir Temurning ayollarga bo'lgan katta e'tiborini quyidagi bir dalil bilan ham isbotlash mumkin. Chunonchi, uning saroyida bo'ladigan yuksak darajadagi borada Klavixo Saroymulxonimning qabul marosimiga kirib kelishini shunday ta'riflaydi: "Zarbob, uzun etaklari kengayib borib, yerni o'padigan, yengsiz qizil ipak ko'ylakda edi. Uning etagini o'n besh nafar ayol ko'tarib keladi. Yog'upa bilan pardozlangan yuzi qog'ozdek oppoq edi. Bu mamlakatdagi barcha aslzoda ayollar yoz va qish oylarida yo'lga otganlarida hamda umuman quyosh nurlaridan saqlanish uchun ushbu yog'upani yuzlariga surib yuradilar. Saroymulxonimning yuzi oppoq harir to'r bilan to'silgan, boshiga esa qizil matodan qalpoq kiygan bo'lib, undan yelkasiga yoping'ich tushib turardi. Qalpoq shaklan baland, juda ko'plab yirik, yarqirab turuvchi, chiroyli halqalangan dumaloq marvarid, talaygina yoqut, eruza va boshqa turli-tuman qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi. Saroymulxonim yelkasidagi yoping'ich zardan to'qilgan bo'lib, qalpoqning cho'qqisida ko'plab qimmatbaho toshlar vakatta marvarid bialn ziynatlangan toj ko'rk bag'ishlar, uchiga esa yorqin va nihoyatda go'zal, ikki barmoq qalinligidagi yoqutdan uchtasi o'rnatilgan edi. Saroymulxonimni hammasi bo'lib, tahminan uch yuz ayol kuzatib kelar edi". Ushbu dalil uzoq o'tmishda, xususan, Amir Temur zamonida ayollar ijtimoiy hayotida muayyan mavqe egallaganidan dalolat beradi. O'sha zamonlardan beri ayollar ayniqsa, onalar o'z bolalari taqdirini belgilash, xatti-harakatlarini, faoliyatlarini to'g'ri yo'lga solish orqali tarixiy taraqqiyotga muayyan ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'lganlar.

Tarixda o'tgan donihsmand va oqila, tengi yo'q ayollardan biri – Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim sanaladi. Tarixchilar qayd etganidek, otasi rahnamoligida Gulbadanbegim turli ilmlarni egallagan, yuksak madaniyat sohibi, nozik didi, sinchkov, tabiatan g'ayratli edi. Gulbadanbegim o'zining "Humoyunnoma" asarida otasi Zahiriddin Muhammad Bonurning podshohligidagi asosiy xususiyatlari hamda farzandlariga, rafiqasi, o'z opasi Xonzodabegim, singlisi Ruqiya Sultonbegimga, barcha yaqinlariga nisbatan iliq munosabatlarini namoyon etgan.

Gulbadan biograf bo'lishi bilan bir qatorda, Sharq diplomatiya tarixiga ham katta hissa qo'shgan olimadir. Jumladan, u Temuriylar davrasida, otasi Boburshoh saroyida qo'llanilgan diplomatic qoidalarni tahlil qilib, ularning mazmun-mohiyatini aytib bergan.

Uning taassurotlari to'g'risida shunday ta'riflar bor: "Odatda shahzodalar, temuriy sarkardalar, bir-birlari bilan yukunib (ta'zim qilib) yoki uch yukunib ko'rishishgan. Har bir yukunish ma'lum bir munosabat mazmunini belgilagan. Xisravshoh uch qatla yukunib, orqaga yurgan. Har bir yukunish uning ustidan g'alaba qilinganligining ramzidir".

Temuriylar sulolasining yorqin namoyondalaridan yana biri Arjumand bonudir. U 19 yoshda 21 yoshli shahzoda Xurram (Shoh Jahon) ga turmushga chiqadi. Vaqt o'tib u o'zining nozik tabiati, tengsiz husn-latofati, o'tkir aql-idroki uchun saroyda hurmatga sazovor bo'ladi. Ota bilan o'g'il o'rtasidagi kelishmovchilikni hal qilgani uchun ikki tomonlama iltifotga sazovor bo'lib, ko'p o'tmay Arjumand bonu ikkinchi ismga – Mumtoz Mahal begim, ya'ni saroyning tengi yo'q ko'rki, degan ismga ega bo'ladi. Shu ism shon-shuhrat keltirib, jahonga mashhur qiladi.

"Shoh Jahon taxtga o'tirganidan keyin, - deb yozadi temurshunos olim T.Fayziyev, - Mumtoz Mahal unga saltanat ishlarida yordamlashadi, rejaga asoslangan maslahatlar berib turadi, hukmdorni to'g'ri yo'lga boshqaradi. Saroyda u maslahatchi va muhrdor lavozimida edi. Mumtoz Mahal begim yaxshi kunlarda ham, og'ir damlarda ham, harbiy safarlarda ham eriga vafodor yor, sodiq hamroh va jafokash hamdard bo'ldi. U qisqa umri davomida 14 nafar farzand ko'rdi, ulardan sakkiz nafari – to'rt qiz, to'rt o'g'il bo'lib, qolgan olti nafari yoshligida nobud bo'lgan. 38 yoshida 14 chi farzandini tug'ish vaqtida vafot etgan ushbu ayol hayot bilan vidolasharkan, eri Shoh Jahondan farzandlariga mehribon bo'lishni, bundan buyon bopshqa uylanmaslikni va unga atab, dunyoda tengi yo'q ulug'vor maqbara bunyod etishni iltimos qildi. O'z bolalari bilan vidolasharkan, Shoh Jahonning ahvolidan xabardor bo'lib, unga g'amxo'rlik qilib turishni o'zining katta qizi – Jahon Oro begim zimmasiga yuklaydi. Shoh Jahon sevikli rafiqasi Mumtoz Mahal begimning vasiyatlariga to'la amal qiladi. Zotan, u keying 36 yillik umri davomida uylanmay o'tadi. Munis va vafodor rafiqasining nomini abadiylashtirish maqsadida, unga atab yaltiroq marmardan hashamatli maqbara qurdiradi".

Bir so'z bilan aytganda, Mumtoz Mahal begim o'z davrining haqiqiy malikasi, yetuk diplomati, hayoti qisqa bo'lsa ham, ibratli bo'lgan. Aynan shuning uchun ham uning katta qizi Jahon Oro begim opasi kabi, saltanat ishlarini boshqarish, ichki va tashqi siyosat, diplomatiya masalalarida otasiga foydali maslahatlar bilan yordamlashar edi. "Saroyga kelgan mehmonlar va rasmiy vakillarning ayollarini kutib olar, ularning ko'ngil ochishlari uchun turli talablar belgilar edi. Ularni risoladagidek sovg'a-salomlart bilab siylab kuzatib qo'yish vazifasi ham uning zimmasida edi. Bu ishlarni u o'zining nihoyatda tadbirkor va uddaburonligini namoyish qilar edi", deb yozadi yana bir taniqli temurshunos G'. Salimov.

Xulosa qilib aytganda, davlatchiligimiz tarixida jasur, mard va oqila ayollarimiz muhim mavqega ega bo'lib, ular nafaqat oila mustahkamligi va farzand tarbiyasi, balki davlat boshqaruvi, harbiy sohada ham faol ishtirok etib kelishgan. O'ylaymizki, momlarimizning betakror jasorati, donishmandligi va ibratli hayoti bugungi hayotimizning ko'rki bo'lmish ayollarimiz uchun namuna bo'lishi, ularni yanada faollikka undashi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutq // "Xalq so'zi". 2018 yil 9 mart
2. Истории Узбекистана в источниках. – Т., 1984, 53-bet.
3. Safayeva S. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlar. – T.: O'zbekiston. 2003. – B. 81-82

4. Azamat Ziyo. O'zbek ayollari tarix sahnasida. – T.: Fan, 2002
5. Ibn Arabshoh. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. – T.: Mehnat, 1992, 99-bet.
6. Farzand – aziz, ona mo'tabar. – T.: O'zbekiston, 2001. – B. 154-155
7. Fayziyev T. Temuriy malikalar. – T., 1994. – B. 25-26.
8. Satimov G'. Boburiyodalari. – T., 2003, 68-bet.

TA'LIM JARAYONIDA INNOVASION TEXNOLOGIYALAR

**Sirojiddinova I.M., ped. fan. nom, dotsent, AndMI,
Axliddinov S.F., 2 bosqich "Sun'iy intellekt" yo'nalishi talabasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va talab, professional ta'limi tizimi, kasbiy ta'limning amalga oshirishdan vazifalari, kasbiy ta'limining asosiy tamoyillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, trayektoriya, texnologiya, xalqaro ta'lim.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va talab kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, ta'limda kredit-modul tizimining yo'lga qo'yilganli bo'lsa, ikkinchidan zamonaviy bilimlar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar ta'lim oluvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. O'quv-tarbiya jarayoni maqsadiga erishishi uchun har bir fan va mavzuning xususiyatidan kelib chiqib pedagogik, axborot-kommunikasion va boshqa texnologiya hamda usullardan foydalaniladi.

Mamlakatimiz professional ta'limi tizimi ko'p o'n yilliklar davomida tashkil topib kelgan va har doim o'z milliy jihatlari va mamlakatimiz an'alarini saqlab qolgan holda dolzarb talablariga javob berib kelgan. Ijtimoiy amaliyotdagi yuqorida sanab o'tilgan ziddiyatlar butun ta'lim makonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida kasbiy ta'limga ham taalluqli. Kasbiy ta'lim quyidagilarni amalga oshirishdan iborat bo'ladi:

yuqori kasbiy talablarga javob beradigan, o'z ixtisosi va chet tillarni mukammal biladigan, zamonaviy axborot kompyuter texnologiyalarini egallagan mutaxassislarni tayyorlash;

nazariy va amaliy qo'llanish xarakteridagi, yetarlicha keng bazaviy muhandislik ta'limiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv rejalari va dasturlariga ega bo'lish, ilm va texnika taraqqiyoti, yangi texnologiyalarning paydo bo'lishini hisobga olish;

xalqaro ta'lim dasturlarini shakllantirish, trenajerlarda o'qitish tizimini xalqaro sertifikatlar berish bilan tashkil qilish, xalqaro ta'lim makonida ham standartlashtirishga intilish.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari holatining tahlili ilmiy pedagogik tafakkur va amaliy faoliyatning rivojlanishi bo'yicha bundan oldingi xorijiy va mamlakatimizdagi tajribaning mavjudligi va maxsus munosabatning tayyorlanganligi haqida dalolat beradi. Bu quyidagilar bilan bog'liq: